

HARBIY XIZMATCHILAR HUQUQLARI TASNIFI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

A.A. Tursunboyev

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20842119>

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarning huquqlari, ularning tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari nazariy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Muallif tomonidan harbiy xizmatchilar huquqlarini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasini ishlab chiqish zarurligini asoslantirilib, milliy va xorijiy olimlarning qarashlari, xalqaro standartlar hamda qiyosiy-huquqiy tajribalar ilmiy tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: harbiy xizmatchi, huquqlar, huquqlar tasnifi, maxsus huquqlar, konstitutsiyaviy huquqlar, ijtimoiy himoya, ta'minot, cheklash, xalqaro standartlar, harbiy qonunchilik.

КЛАССИФИКАЦИЯ И ОСОБЕННОСТИ ПРАВ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аннотация. В данной статье с теоретико-правовой точки зрения проанализированы права военнослужащих, их классификация и особенности. Автор обоснована необходимость разработки современной концепции обеспечения прав военнослужащих, научно исследованы взгляды национальных и зарубежных ученых, международные стандарты и сравнительно-правовой опыт.

Ключевые слова: военнослужащий, права, классификация прав, специальные права, конституционные права, социальная защита, обеспечение, ограничение, международные стандарты, военное законодательство.

CLASSIFICATION AND FEATURES OF THE RIGHTS OF MILITARY PERSONNEL

Annotation. This article provides a theoretical and legal analysis of the rights of military personnel, their classification, and specific characteristics. The author substantiates the need to develop a modern concept for ensuring the rights of military personnel, scientifically researching the views of national and foreign scientists, international standards, and comparative legal experience.

Key words: military personnel, rights, classification of rights, special rights, constitutional rights, social protection, security, restrictions, international standards, military legislation.

Davlatlarning mustaqil subyekt sifatida mavjudligining asosiy belgilaridan biri uning suvereniteti, xavfsizligi va yaxlitligini himoya qilishga qodir bo'lgan qurolli kuchlarining bilan beligalanadi. Harbiy xizmatchilarning maqomini takomillashtirishda ularning huquqlari va ularning tasnifi va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashning nazariy jihatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Boisi harbiy xizmatchilarning huquqlarini to'liq tavsiflash ularning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari, ehtiyojlari, davlat bilan harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlari, mehnat va ijtimoiy-siyosiy faoliyat kabi jihatlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Bu borada yurtimizda ham harbiy xizmatchilarning maqomi, ularning huquqlari yuzasidan bir qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Jumladan professor M.X.Rustambayev, D.M.Mirazov, M.M.Nurmatov, M.M.Maxsodov, SH.M.Gaziyev va boshqa ko‘plab olimlar, ilmiy izlanuvchilar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

Harbiy xizmatchilar huquqning maxsus subyektidir[1] Harbiy xizmatchilarning huquqlari deganda Konstitutsiya va qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan harbiy xizmatchilarning manfaatlarini himoya qilish, ta‘minlash bilan bog‘liq maqsadlarga erishishga qaratilgan xatti-harakatlar va choralar majmui tushuniladi.

Professor M.M.Nurmatov ilmiy izlanishlarida harbiy xizmatchilarning huquqlarini subyektiga ko‘ra quyidagicha tasniflagan:

- harbiy yig‘inlarga chaqirilgan harbiy xizmatga majbur fuqarolarning huquqlari;
 - muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchilarining huquqlari;
 - shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilarning huquqlari;
 - rezervdagi harbiy xizmatga majburlarning huquqlari;
- harbiy xizmatchilar oila a‘zolarining huquqlari.[2]

Harbiy xizmatchilar huquqlari tasnifi va o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan bir qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Jumladan MDH mamlakatlari olim va izlanuvchilaridan A.E.Ushamirskiy “Rossiya harbiy xizmatchilarining subyektiv huquqlarini amalga oshirish mexanizmi” (2006), A.A.Stremouxova “Huquq maxsus subyektining huquqiy maqomi” (huquqiy-nazariy jihat) (2002), A.V.Korovnikova “Harbiy xizmatchilarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish” (nazariy va huquqiy tadqiqot) (2000), Y.I.Migacheva “Harbiy xizmatchilarning maqomini amalga oshirishning huquqiy kafolatlari” (qiyosiy-huquqiy tadqiqot) (1999) shular jumlasidandir[3].

Rossiya olimlaridan N.Serebryakova[4], M.Voronseva va V.Makarovalar [5] harbiy xizmatchilar ijtimoiy ta‘minotga bo‘lgan huquqlarini ilmiy tadqiq etib ularni asosiy 4 ta toifaga: pensiya, uy-joy (doimiy, vaqtincha), pul, moddiy ta‘minoti (mehnatga haq to‘lash, kompensatsiya, imtiyoz) va sog‘liqni saqlash (majburiy va tibbiy sug‘urta)ga ajratishgan. Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy ta‘minotga bo‘lgan huquqlari bo‘yicha Rossiyalik olim N.V.Antipeva[6] ham izlanishlar olib borib yuqoridagi ro‘yxatni umumiy 4 ta toifaga ajratadi: ijtimoiy sug‘urta, davlat ijtimoiy ta‘minoti, ijtimoiy yordam, ijtimoiy xizmat. Muallif harbiy xizmatchilarning hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni undirish masalasini ijtimoiy ta‘minot elementi emas, balki fuqarolik-huquqiy munosabat fe‘l-atvoriga ega, deb hisoblagan va ro‘yxatga qo‘shmagan.

Rossiyalik olim A.V.Korovnikov harbiy xizmatchilarning huquqlari haqida “harbiy xizmatchilar va ular oila a‘zolarining ijtimoiy hamda moddiy holatini oshirish, ularning muammolarini o‘rganib borish va hal etish, qonunda belgilangan huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish o‘z navbatida harbiy xizmatni sifatli olib borilishiga, yuksak harbiy intizom bo‘lishiga hamda harbiy bo‘linmalarining muntazam jangovar shayligi holati ta‘minlanishiga turtki beradi” degan fikrlarni ilgari surgan.

G‘arbiy Yevropa davlatshunoslari Yelinek, Esmen, Oriularning nuqtayi nazarini qo‘llab-quvvatlagan professor A.M.Dobrovolskiy harbiy xizmatchilarning siyosiy huquqlarini cheklash zarurligini ikki asosga ko‘ra:

1) “umumdavlat manfaatlarini himoya qilish: saylov huquqini amalga oshirish erkinligini ta‘minlash va armiyani davlatdagi siyosiy roldan chetlashtirish” tamoyilidan;

2) “qurolli kuchlarning maxsus manfaatlarini himoya qilish va unda intizom va harbiy huquq-tartibotni muhofaza qilish” tamoyilidan kelib chiqadi[7].

Harbiy xizmatchilarning maxsus huquqlari yuzasidan chet el olimlaridan K.Xesse (Germaniya), J.Rekengo (Fransiya), L.P.Kroker (AQSH) ilmiy tadqiqotlar olib borgan[8]. Olim A.V.Korovnikovning ta’kidlashicha, “harbiy xizmatchilarning siyosiy huquq va erkinliklari quyidagilardan iborat: so’z va fikrlash erkinligi huquqi, vijdon va din erkinligi huquqi; tinch yig’ilishlar va uyushmalarda ishtirok etish huquqi; o’z mamlakatini boshqarishda ishtirok etish huquqi; kasaba uyushmalarini tuzish va ularning ishida ishtirok etish huquqi”[9].

Shuningdek P.V. Anisimov, A.E. Ushamirskiylar harbiy xizmatchilarning huquqlari haqida quyidagi fikrlarni ilgari surgan. “Harbiy xizmatchilar birinchi navbatda davlat fuqarosi sifatida konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarga ega bo’ladi. Ularning huquqlari harbiy xizmatning talablaridan kelib chiqib cheklanishi mumkin. Bunday cheklovlar, ya’ni davlatni himoya qilish, davlat organlarining boshqa har qanday faoliyati singari, inson huquqlari va erkinliklarini so’zsiz tan olish va qat’iy rioya qilishga asoslanishi kerak”[10]. Biz ham yuqoridagi fikrlarga qo’shilgan holda harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini cheklash faqatgina mamlakat mudofaasi va xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash zaruriyatidan kelib chiqib xalqaro inson huquqlari va erkinliklari normalariga rioya qilgan holdagina cheklanishi kerak deb hisoblaymiz.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, davlat tomonidan harbiy xizmatchilarning o’z huquqlarini to’sqinliksiz amalga oshirishi uchun shart-sharoit yaratish, ya’ni ularni amalga oshirish uchun qonunda belgilanganidan tashqari har qanday cheklovlar mavjudligini istisno qilish muhimdir. Bu haqda, A.Beznasyuk va A.Ababkovlarning bildirgan mulohazasi e’tiborga loyiq bo’lib, harbiy xizmatchi har qanday fuqaro bilan teng huquqlarga ega. Ba’zi hollarda, ularga fuqaroning konstitutsiyaviy maqomini berish yoki Qurolli Kuchlarning samaradorligi uchun zarur bo’lgan holda faqat harbiy xizmat talablari doirasida va qat’iy qonunchilik asosida cheklanishi mumkin.[11]. Ayni shunday norma Rossiya Federatsiyasi harbiy qonunchiligi tizimining ham muhim prinsipidir.

Rus olimi M.V. Palexinning fikricha “harbiy xizmatchilarning huquqlari orasida fuqarolik huquqi normalari muhim o’rin tutadi[12]. Uning fikricha “harbiy xizmatchilarning huquqlarini himoya qilish to’g’risidagi qonun hujjatlari, birinchi navbatda, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarining mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo’lishi lozim”.

Harbiy xizmatchilar huquqlari mazmuniga ko’ra shaxsiy huquqlar (yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik, so’z va e’tiqod erkinligi), ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar (mehnat qilish, moddiy ta’minot, pensiya, uy-joy, sog’liqni saqlash) hamda siyosiy huquqlar (saylovlarda qatnashish, murojaat qilish, jamoat birlashmalarida ishtirok etish)ni o’z ichiga oladi. Shu bilan birga, huquqiy tabiatiga ko’ra **umumfuqaroviy huquqlar** va faqat harbiy xizmat bilan bog’liq bo’lgan **maxsus huquqlarga** ajratiladi. Maxsus huquqlarga qurolni saqlash va qo’llash, davlat himoyasida bo’lish, xizmat ma’lumotlariga ega bo’lish, lavozim bo’yicha ko’tarilish, moddiy rag’bat va imtiyozlar kiradi.

Yuqoridagilarga qo’shimcha tarzda harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda ularning sha’ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro’siga putur yetkazuvchi ma’lumotlarni rad etish uchun harbiy xizmatchilarning iltimosiga binoan rasmiy

(ma'muriy) surishtiruv (tergov) o'tkazish huquqi belgilanmagan. Masalan harbiy xizmatchiga nisbatan unga aloqasi bo'lmagan yoki uni obro'sizlantirishga qaratilgan ariza (shikoyat, murojaat va b.q)lar, yoki internet jahon axborot tarmog'idagi video, foto va boshqa ko'rinishdagi asossiz, yolg'on va harbiy xizmatchining kasbiy fazilatlariga putur yetkazuvchi ma'lumotlar bergan shaxslarga nisbatan rasmiy (ma'muriy) surishtiruv (tergov) o'tkazish uchun tegishli organlarga murojaat qilish huquqini berish va bu huquqni normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlash lozim deb hisoblaymiz.

Harbiy xizmatchilarning shaxsiy huquqlari - ularning ajralmas huquqlari bo'lib, inson tug'ilgandan vujudga keladigan va u tomonidan bevosita amalga oshiriladigan, shuningdek ijtimoiy taraqqiyot jarayonida inson tabiatidan kelib chiqadigan oliy ijtimoiy qadriyat yoki ehtiyojlardan biriga bo'lgan talabni qondiruvchi huquqlardir.

Harbiy xizmatchilarning shaxsiy huquqlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- yashash huquqi;
- erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi;
- aybsizlik prezumpsiyasi;
- qiynoqqa solinish, zo'ravonlikka, shafqatsiz va yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlardan himoyalaniş huquqi;
- turar joy daxlsizligi huquqi;
- so'z, fikrlash va e'tiqod erkinligi huquqi (davlat sir bilan bog'liq ma'lumotlar bundan mustasno);
- barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan o'zining huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish huquqi;
- erkin harakatlanish huquqi, bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, yashash joyini erkin tanlash huquqi, faqat qonunlarda belgilangan cheklovlar bundan mustasno.

Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlari – ularning yashash sharoitlarini, o'z imkoniyat va qobiliyatlaridan foydalanishini, jamiyatdagi shaxslar bilan o'zaro iqtisodiy aloqalarini, ijtimoiy himoyalanganligini belgilovchi, madaniy huquqlar insonning konstitutsiya yoki qonun bilan kafolatlangan va insonning madaniy hamda ilmiy sohada o'zini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratadigan huquqlar yig'indisidir.

Harbiy xizmatchilarning siyosiy huquqlari - mamlakat hayoti va uni boshqarish ishlarida ishtirok etishini ta'minlovchi huquqlaridir. Bunday huquqlar harbiy xizmatchilarning fuqarolar va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash xizmat qiladi. Harbiy xizmatchilarning huquqlari bir qator xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan qonun hujjatlarida mustahkamlangan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida qiynoq va shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazodan ozod bo'lish huquqi kafolatlangan[13]. "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt"ga muvofiq hech kim qiynoqlarga, shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazoga duchor bo'lmasligi belgilangan[14].

Harbiy xizmatchilarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari konstitutsiyaviy qonunlar bilan belgilangan ba'zi cheklovlar bilan barcha inson va fuqarolarning huquq va erkinliklariga ega.

Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklariga nisbatan huquqiy cheklovlar xalqaro standartlarda ham o'z ifodasini topgan. Jumladan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 29-moddasi 2-bandida "o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda har bir kishi faqat boshqalarning huquqlari va erkinliklarini munosib tan olish va hurmat qilishni ta'minlash, axloq, jamoat tartibi va demokratik jamiyatda umumiy farovonlik talablariga javob berish uchun qonunda belgilangan cheklovlarga duch kelishi" belgilangan[13].

Harbiy xizmatchilarning huquqlarini cheklash amaliyotini jahonning bir qator mamlakatlarida ham ko'rishimiz mumkin. Harbiy xizmatchilarning siyosiy huquqlari quyidagi shaklda cheklovlar o'rnatilgan:

- siyosiy partiyalarga a'zolikni taqiqlash;
- saylanadigan siyosiy lavozimlarga nomzod bo'lishni taqiqlash;
- harbiy xizmatchilarning harbiy kiyimdagi namoyishlarda qatnashishini taqiqlash;
- so'z erkinligini cheklash.

Bunday cheklovlar uchun quyidagi asoslar mavjud.

Birinchidan, Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari mamlakatning hududiy yaxlitligi va konstitutsiyaviy tuzumining himoyachisi sifatida betaraflikka (neytrallik) rioya qilishlari va siyosiy kelishmovchiliklardan holi bo'lishlari kerak. Armiyaning betarafligi saylovchilarga davlatni kim boshqarishi kerakligini o'zlari hal qilish imkoniyatini beradi.

Ikkinchidan, cheklovlar Qurolli Kuchlar ichidagi siyosiy kelishmovchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, ular qo'shinlarning jangovar qobiliyati va ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, ayniqsa mamlakatning siyosiy rahbariyatiga yoki saylangan davlat rahbarlari tomonidan armiya oldiga qo'yilgan vazifalarga tanqidiy munosabatda bo'lishini inobatga olish zarur. **Uchinchidan**, siyosiy va mudofaa sohalari o'rtasidagi bo'linish qurolli kuchlar ustidan samarali fuqarolik nazoratini ta'minlash hamda harbiy xizmatchilarning siyosiy huquqlarini cheklash imkon beradi.

To'rtinchidan, harbiy intizom harbiy xizmatchilarning so'z erkinligi huquqini cheklashlarni nazarda tutadi. Sababi harbiy xavfsizlik masalalari hamda harbiy sirlarni oshkor qilish so'z erkinligini cheklash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Rossiya Federatsiyasining "Harbiy xizmatchilarning maqomi to'g'risida"gi Federal Qonunining 7-moddasida "so'z erkinligi huquqini amalga oshirishda harbiy xizmatchilar davlat va harbiy sirni oshkor qilish, komandir (boshliqlar)ning buyruqlarini muhokama qilish va tanqid qilish huquqiga ega emasligi belgilangan[15].

Litvada harbiy xizmatchilarning so'z erkinligi huquqiga demokratik yo'l bilan davlat lavozimiga saylangan shaxslarni (parlament, prezident yoki hukumatni) tanqid qiluvchi ommaviy siyosiy bayonotlar berish yoki davlat institutlariga nisbatan siyosiy talablarni ifodalovchi bayonotlar berish huquqi kiradi. Barcha erkinliklarni cheklash faqat harbiy xizmat vazifalarni bajarish va qurolli kuchlarda tartib va intizomni ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajada va harbiy xizmatga muvofiq keladigan doirada cheklanadi. Shveysariyada harbiy xizmatchilarning so'z erkinligi huquqiga nisbatan cheklovlar fikr bildirish shakliga qaratilgan bo'lib ya'ni harbiy xizmatchilarga harbiy kiyim kiygan holda siyosiy bayonotlar berish taqiqlanadi[16].

Harbiy xizmatchilarning saylash va saylanish huquqini cheklash ularning siyosiy betaraflik tamoyiliga qat'iy rioya qilishlari hamda harbiylarning siyosiy munozaralar doirasiga aralashmasligiga xizmat qiladi. Polshada harbiy xizmatchilardan siyosiy faoliyatda ishtirok etishdan butunlay voz kechishlari talab etiladi. Polsha Konstitutsiyasining 26.2-moddasiga ko'ra "Qurolli kuchlar harbiy xizmatchilari siyosiy ishlarda betaraf bo'lib, fuqarolik va demokratik nazorat ostidadir" degan norma belgilangan. 2002-yilda Polsha Konstitutsiyaviy sudi harbiy xizmatchilarning siyosiy faoliyatda ishtirok etishidagi qat'iy cheklovlar Konstitutsiyaga zid emasligini e'tirof etgan.

Italiya, Belgiya va Buyuk Britaniyada harbiy kiyim kiygan harbiy xizmatchilarning siyosiy tadbirlarda qatnashishi taqiqlangan. Ushbu cheklov Buyuk Britaniyada armiyasi harbiy xizmatchilari uchun ham joriy etilgan bo'lib, harbiy xizmatchilarning siyosiy partiyadagi har qanday lavozimlarni egallashini cheklagan.

Xorvatiyada harbiy xizmatchi saylanish, siyosiy partiyaga a'zo bo'lish yoki harbiy masalalar bo'yicha fikr bildirish erkinligi huquqi faqat vazirlar darajasida ma'qullangandan keyin olinishi mumkin. Lyuksemburda barcha harbiy xizmatchilar saylovda ishtirok etishlari mumkin.

Harbiy xizmatchi saylangan taqdirda harbiy xizmatdan ketishi talab etiladi. Gollandiyada ma'lum sharoitlarda, masalan harbiy inshootlarda (harbiy qism, muassasalar) namoyishlar o'tkazishga va harbiy kiyimdagi harbiy xizmatchilarga ommaviy yig'ilishlarda qatnashishga ruxsat berilgan. Germaniyada qabul qilingan "harbiy kiyimdagi fuqaro" konsepsiyasiga ko'ra harbiy xizmatchilarning siyosiy hayotda ishtirok etishiga ruxsat berish orqali qurolli kuchlarda demokratiyani takomillashtirishga xizmat qilishi belgilangan. Germaniyada harbiy xizmatchilarning demokratiyani qo'llab-quvvatlovchi partiyaga a'zo bo'lish huquqini kafolatlangan. Shuningdek harbiy xizmatchilar parlament saylovlarida ishtirok etishlari ham taqiqlanmagan. Buning uchun harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatdan vaqtincha bo'shab turishlari talab etiladi.

AQSHda esa harbiy xizmatchilarning siyosiy huquqlariga qisman cheklovlar o'rnatilgan. AQSH Mudofaa vazirligi tomonidan "harbiy xizmatchilarning siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishiga oid qo'llanma" ishlab chiqilgan. Uning asosiy maqsadi AQSH harbiy xizmatchilarini o'zlarining fuqarolik burchlarini bajarishga qaratilgan. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarga haqiqiy harbiy xizmatni o'tash vaqtida siyosiy faoliyatning ayrim turlari bilan shug'ullanish taqiqlanadi.

Qolaversa AQSH qurolli kuchlari ofitser tarkibidagi harbiy xizmatchilariga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, tijorat tashkilotiga ishga yollanish va xizmat joyidan ketish talab etilsa yoki xizmatda boshqa to'siqlar yuzaga kelsa, mukofot olish, davlat manfaatlariga daxldor har qanday masalalar bo'yicha xususiy firmalarning maslahatchisi bo'lish, har qanday davlat muassasasida xizmatdan tashqari vaqtda bajarilgan ish uchun mukofot va sovg'alar, shuningdek, Mudofaa vazirligi bilan ish munosabatlariga ega bo'lgan yoki ulardan manfaatdor bo'lgan xususiy shaxslar va firmalardan pul mukofotlari olish taqiqlangan.

O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmatchilarga siyosiy partiyalar va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish taqiqlangan. Harbiy xizmatchilarning siyosiy huquqlarini cheklash xalqaro huquq tamoyillari va normalariga zid emas.

“Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi pakt”ning 22-moddasida “har bir insonning uyushma tuzish erkinligi huquqi mustahkamlangan bo‘lib, unda “ushbu modda qurolli kuchlar va politsiya tarkibiga kiruvchi shaxslar uchun mazkur huquqdan foydalanishda qonuniy cheklovlar kiritilishiga to‘sqinlik qilmaydi” deb belgilangan. Milliy qonunchilik xalqaro huquqda nazarda tutilgan uyushmalar erkinligi kafolatlari va tashkilot tuzish huquqini himoya qilish qurolli kuchlarga va politsiyaga qanday darajada tatbiq etilishini belgilaydi[14].

Bunday uyushmalar o‘zlarini harbiy kasaba uyushmalari sifatida emas, balki harbiy xizmatchilarni huquqlari va erkinliklarini ifodalovchi tashkilotlar sifatida e’tirof etiladi. Shu bilan birga, bir qator mamlakatlar harbiy xizmatchilarning birlashmalarini yaratish g‘oyasining qurolli kuchlarning o‘ziga xos xususiyati va ularning xavfsizlik va jamoat tartibini ta’minlashdagi rolga zid keladi deb hisoblanadi. Masalan, Shvetsiya va Niderlandiyada harbiy xizmatchilarning kasbiy birlashmalari ishchilarning kasaba uyushmalari bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi yo‘lga qo‘yilgan. Ayrim mamlakatlarda harbiy kasbiy uyushmalar ishchilar kasaba uyushmalari yoki davlat xizmatchilari uyushmalarining bir qismi sifatida faoliyat yuritishi belgilangan. Fikrimizcha harbiy xizmatchilarning kasaba uyushmalariga a‘zo bo‘lishlari taqiqlanganligini hisobga olib, harbiy xizmatchilarning birlashish erkinligi huquqini amalga oshirishning muqobil vositalarini taqdim etish imkoniyatini ko‘rib chiqish kerak. Bu orqali harbiy xizmatchilarning huquqlarini himoya qilish shuningdek ularning maqomini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin. Harbiy xizmatchilarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ularning jamiyatdagi mavqei belgilovchi me‘yor deyish mumkin. Harbiy xizmatchilarning fuqarolik huquqlarini amalga oshirish imkoniyati harbiy xizmatchilar maqomining ikki qismli tuzilishidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Ya’ni harbiy xizmatchi bir tomondan, fuqaro sifatida umumiy fuqarolik maqomiga ega bo‘lgani holda barcha fuqarolarga tegishli huquqlarga ega bo‘ladi.

Bugungi kunga kelib harbiy xizmatchilarning harbiy xizmatni o‘tashida ularning huquqlarining ustuvorligi tamoyiliga asoslangan subyektiv huquqlarini ta’minlashning yangi konsepsiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz. Harbiy xizmatchilarning huquqlarini to‘liq amalga oshirishi uchun harbiy qonunchiliklardagi mavjud bo‘shliqlarni bartaraf etish zarur deb hisoblaymiz. Harbiy xizmatchining huquqlari deganda Konstitutsiya va qonunlar hamda boshqa me‘yoriy hujjatlar bilan belgilangan va davlat tomonidan qo‘riqlanadigan harbiy xizmatni samarali o‘tash imkoniyatlari tushuniladi. Harbiy xizmatchilar ham fuqaro sifatida o‘z davlati Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlangan huquq va erkinliklardan ma’lum cheklovlar bilan foydalanadilar. Shuningdek harbiy xizmatchilarga ular xizmat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun maxsus (umumiy) huquqlar beriladi va bunday maxsus huquqlar ularning lavozimlari va maxsus majburiyatlarni bajarishi bilan bog‘liq bo‘lmaydi.

Fikrimizcha harbiy xizmatchilar umumiy huquqlarining alohida turi bo‘lgan rag‘batlantirish huquqi, u harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatida eng muhim omil hisoblanadi.

E’tiborlisi rag‘batlantirish huquqiga barcha harbiy xizmatchilar emas, balki me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ularni qo‘llash vakolati berilgan shaxslar, ya’ni komandirlar va boshliqlargina bunday huquqqa ega.

Harbiy xizmatchilarga ilmiy, pedagogik va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga ruxsat berilgan.

Harbiy xizmatchilarning ushbu huquqi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasidan kelib chiqib, har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlangan.

Lekin harbiy xizmatchilar tomonidan ushbu faoliyat bilan shug‘ullanishning aniq shakllari ya’ni uni rasmiylashtirish, mehnat shartnomalari (kontraktlar) bilan ham, fuqarolik-huquqiy shartnomalar bilan ham amalga oshirish tartibi belgilanmagan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi[17] Qonunda harbiy xizmatchilarning pedagogik faoliyat olib borishlari tartibi va shakllari belgilanmagan. Binobarin, harbiy xizmatchi yakka tartibdagi mehnat pedagogik faoliyati (repetitorlik) bilan shug‘ullanishga haqli emas.

Qolaversa harbiy xizmatchilarning ilmiy va boshqa ijodiy faoliyatining yuridik ta’rifi mavjud emas. Biroq, amaliyotda ko‘pincha ilmiy monografiyalar, asarlar, maqolalar, sharhlarni tayyorlash va nashr etish; ilmiy tadqiqotlar (eksperimentlar, kuzatishlar, tajribalar va boshqalar) o‘tkazish va ishlanmalar yaratish, ilmiy konferensiyalar, simpoziumlar, davra suhbatlari, ilmiy-amaliy seminarlar va boshqalarda ishtirok etish, turli muammolarni tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqish bo‘yicha ijodiy jamoalar ishida ishtirok etish va boshqalar tushuniladi.

Harbiy xizmatchilarning ilmiy va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun rasmiy maqom talab qilinmaydi. Har bir harbiy xizmatchi, ilmiy darajasi va unvonidan qat’i nazar, ilmiy faoliyat olib borayotgan istalgan tashkilot bilan hamkorlik qilgan holda, haq evaziga ilmiy ish bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida harbiy xizmatchilar tomonidan so‘z erkinligi huquqini amalga oshirishda ikkita cheklov o‘rnatilgan. Birinchidan, ular davlat sirlarini oshkor qilmasliklari kerak. Ikkinchidan, so‘z erkinligi huquqini amalga oshirishda harbiy xizmatchilar komandirning buyruqlarini muhokama va tanqid qilmasligi kerak.

Mazkur qoida harbiy intizomning asosi bo‘lgan yakkaboshchilik tamoyiliga izchil amal qilishga qaratilgan. Qonun doirasida ko‘rsatilgan cheklov nafaqat harbiy xizmatchi bevosita bo‘ysunuvchi komandir (boshliq) buyruqlarini, balki boshqa harbiy mansabdor shaxslar buyruqlarini ham muhokama qilish va tanqid etilmasligini o‘z ichiga oladi.

Tahlil qilingan materiallar shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatchilar huquqlari davlatning mudofaa va xavfsizlikni ta’minlashdagi strategik vazifalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular umumfuqaroviy va maxsus huquqlardan iborat murakkab tizimni tashkil etadi. Harbiy xizmatning o‘ziga xos sharoitlari tufayli ayrim konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar qonuniy asosda cheklanishi mumkin bo‘lsa-da, bunday cheklovlar xalqaro inson huquqlari standartlariga muvofiq, faqat zarur va mutanosib bo‘lishi lozim.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi, moddiy ta’minoti, pensiya, uy-joy, sog‘liqni saqlash, shaxsiy va siyosiy huquqlarini kafolatlash ularning xizmat samaradorligi, jangovar shayligi va harbiy intizomini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Milliy va xorijiy olimlarning qarashlari hamda qiyosiy-huquqiy tajriba shuni tasdiqlaydiki, harbiy xizmatchilar huquqlarini to‘liq ta’minlash faqatgina imtiyozlar berish bilangina emas, balki ularning xizmat majburiyatlari, mas’uliyati va huquqiy tartibotga qat’iy rioya etishini ta’minlovchi samarali nazorat mexanizmlari bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilar huquqlarini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasini ishlab chiqish, mavjud qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish hamda xalqaro standartlar asosida huquqiy kafolatlarni yanada mustahkamlash mamlakat mudofaa salohiyatini oshirish, harbiy xizmat nufuzini yuksaltirish va jamiyatda adolatli huquqiy muhitni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кудрявцев И.В. Сотрудник правоохранительных органов как специальный субъект права // Российская полиция: три века служения Отечеству [Электронный ресурс]: материалы юбилейной междунар. науч. конф., посвященной 300-летию рос. полиции. Санкт-Петербург, 23 – 25 апреля 2018 г. / под ред. Н. С. Нижник; С.-Петербург. ун-т МВД России. СПб., 2018. Б. 1084 – 1085.
2. M.M.Nurmatov Harbiy huquq. Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. – 659 b. B. 63-67
3. Дирина А.И. “Конституционно-правовое регулирование и особенности правовой реализации политических прав военнослужащих Российской Федерации”: Дис.....канд. Юрид. наук. Ставрополь 2009. С.5.
4. Серебрякова Н.А. Совершенствование системы социальной защиты военнослужащих: автореф...дисс.канд. экон.наук. Саратов. 2009 г. – С.13 // Elektron manba: <https://www.dissercat.com>
5. Воронцева М.В., Макаров В.Е. Социальная защита и социальное обслуживание населения. Учебно-методическое пособие // –2015 г. – С.158
6. Антипьева Н.В. Социальное обеспечение военнослужащих: проблемы правового регулирования: автореф. дисс. док. юрид. наук. – Санкт -Петербург. 2010. – С.3 // Elektron manba: <https://law.spbu.ru>
7. Добровольский А.М. Особенности положения военнослужащих в области публичного права. — СПб, 1913. — С.6.
8. Хессе К. Основы Конституционного права ФРГ. - М., 1981. - С. 169.
9. Коровников А.В. Правовая и социальная защита военнослужащих (теоретико-правовое исследование) : Дис. ...докт. юрид. наук: 12.00.01 Спб., 2000. С. 61
10. Анисимов П.В., Ушамирский А.Э. К вопросу о пределах и формах ограничения субъективных прав военнослужащих // Новая правовая мысль. 2006. №4. С. 11.
11. Безнасюк А., Абабков А. Защита прав военнослужащих // Российская юстиция. 1999. №8. С. 45. (Beznasyuk A., Babkov A. Protection of military personnel // Russian justice. 1999. №8. P. 45)
12. М.В. Палехин. Гражданско-правовая охрана прав военнослужащих. Дисс. на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Волгоград-2006.
13. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 5-moddasi. BMT Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrda 217 A (III) rezolyusiyasi bilan qabul qilingan. // <https://www.un.org/ru/documents/>

14. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (Nyu-York, 1966 yil 16 dekabr). 7-modda. "O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi" // www.lex.uz.
15. Федеральный закон РФ от 27.05.1998 № 76-ФЗ «О статусе военнослужащих». // Официальный интернет-портал правовой информации РФ, <http://pravo.gov.ru>
16. Инсон ҳуқуқлари ва ҳарбий хизматчиларнинг асосий эркинликлари бўйича қўлланма. ЕХХТ Демократик институтлар ва инсон ҳуқуқлари Бюроси. 2008 йил. Б. 75.
17. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son, "O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi" // www.lex.uz.